



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIOVIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

12(50)2022

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
Т.А. АСКАРОВ
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
С.И. ИСМОИЛОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Б.Т. РАХИМОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com>

E: ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал

*Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (50)

2022

декабрь



Received: 20.11.2022
Accepted: 29.11.2022
Published: 20.12.2022

UDK 616-093/-098/616.973

BUXORO VILOYATIDA 2019-2022 YILLARDA LEYSHMANIOZ KASALLIGINING KLINIK SHAKLLARI UCHRASH DARAJASI TUMANLAR KESIMIDA

Ozodov J.H.

Buxoro davlat tibbiyot instituti

✓ Rezyume

Tekshiruvni 2019-2022 yillarda Buxoro viloyatining turli hududlaridan Leyshmanioz kasalligi bilan kasallangan 1137 nafar bemorlar ambulator kartalari retrospektiv tahlil qilindi. Leyshmanioz diagnozi klinik, epidemiologik va laborator usullar orqali tasdiqlandi. Bemorlarning leyshmanioz kasalligining qaysi klinik shakli bilan kasallanganligi tumanlar kesimida o'rganib tahlil qilib chiqildi. Nisbatan uchrash foizi o'rganildi. Olingan natijalar asosida ko'rsatkichlarga statistik ishlov berildi.

Kalit so'zlar: Leyshmanioz, allergik rinit, branxial astma, ekologiya.

КЛИНИЧЕСКИЕ ФОРМЫ ЛЕЙШМАНИОЗА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ В 2019- 2022 ГГ. ЧАСТОТА ВСТРЕЧАЕМОСТИ В РАЗРЕЗЕ РАЙОНОВ

Ozodov J.H.

Бухарский государственный медицинский институт

✓ Резюме

Обследование представляло собой ретроспективный анализ амбулаторных карт 1137 больных лейшманиозом из разных районов Бухарской области за 2019-2022 годы. Диагноз лейшманиоза был подтвержден клиническими, эпидемиологическими и лабораторными методами. Изучена и проанализирована клиническая форма больных лейшманиозом по районам, изучена относительная заболеваемость. По полученным результатам проведена статистическая обработка показателей.

Ключевые слова: лейшманиоз, аллергический ринит, бронхиальная астма, экология.

CLINICAL FORMS OF LEISHMANIASIS IN THE BUKHARA REGION IN 2019-2022. FREQUENCY OF OCCURRENCE BY DISTRICTS

Ozodov J.H.

Bukhara State Medical Institute

✓ Resume

The survey was a retrospective analysis of outpatient records of 1137 patients with Leishmaniasis from different districts of the Bukhara region for 2019-2022. The diagnosis of leishmaniasis was confirmed by clinical, epidemiological and laboratory methods. The clinical form of patients with Leishmaniasis by regions was studied and analyzed, and the relative incidence was studied. Based on the results obtained, statistical processing of the indicators was carried out.

Key words: Leishmaniasis, allergic rhinitis, bronchial asthma, ecology.

Dolzarbligi

Leyshmanioz muammosi hozirgi vaqtda dermatologiya amaliyotid eng dolzarblaridan biri. Teri kasalliklari orasida yetakchilardan o'rinni Leyshmanioz kasallikni egallaydi, uning tarqalishi epidemiologik tadqiqotlarga ko'ra 17 dan 25% gacha [1].

Hududiy kasallik shakllanishining asosiy omili hisoblanadi. Leyshmanioz bolalarning 81 foizida uchrashi isbotlangan [2].

Zamonaviy tibbiyot davolash usullarini tanlashda dalillarga asoslangan yondashuvga asoslanadi. Bundan tashqari, ma'lum vositalarning patogenetik asosga ta'siri ega bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtda Leyshmanioz patogenez chuqur va batafsil o'rganilmoqda. Ushbu kasallik patogenezida: terining to'siq funksiyasining buzilishi va immun yallig'lanishning rivojlanishi hamda Leyshmaniya paraziti asosiy o'rinni egallab kasallik keltirib chiqaradi [3-4].

Kasallik surunkali takroriy kechishi bilan tavsiflanganligi sababli, kasallik chastotasi va og'irlik darajasini kamaytirish va remissiya davrlarini ko'paytirish maqsadida davolanish davom ettiriladi. Optimal natijaga erishish uchun kasallikning og'irligini ob'ektiv baholash, so'ngra davolash usulini yetarli darajada tanlash kerak. Leyshmanioz qichishish va terida namoyon bo'ladigan o'zgarishlar SCORAD shkalasidan (leyshmaniozni baholash) foydalanilgan holda baholanadi [5-6].

Leyshmaniyaning asosiy belgilari kuchli qichishish, surunkali takroriy kurs, teridagi yomon yara, leykotsitlarning keskin o'sishi, bilvosita kechikkan tipdagi giperreaktivlikni ko'rsatadi [7].

Leyshmanioz patogenezida klinik ma'lumotlar, hududiy omil katta rolini ko'rsatadi. Shunday qilib, cho'l iqlimli hududlarda 40-50% hollarda ushbu kasallik uchrashi aniqlandi [8].

Tadqiqot maqsadi: Buxoro viloyatida 2019-2022 yillarda Leyshmanioz kasalligi aniqlangan bemorlar orasidan kasallikning klinik shakllarini tumanlar kesimida ajratib o'rganish.

Material va uslublar

2019-2022 yillarda viloyat Dermatovenerologiya dispanseriga murojaat qilgan bemorlarda klinik diagnoz qo'yildi. Bemorlardan olingan tahlil va klinikaga orqali diagnoz tasdiqlandi. Davolangangacha va davolangandan keyingi natijalarni taqqoslandi. Bemorlar ambulator kartalari retrospektiv o'rganilib tahlil qilindi.

Statistik uslublar: Olingan natijalarga statistik ishlov berildi. Ilmiy ish natijasida olingan xulosalar va ma'lumotlarning ishonchlik darajasini aniqlash uchun ko'rsatkichlarning o'rtacha miqdori-M, o'rtacha miqdorning xatosi – m va ishonchlik farqi-R ni topishda I.P.Ashmarin va A.A.Vorobev (1962) tomonidan tavsiya etilgan usullarva mezonlardan foydalanildi. R-ishonchlik farqi Styudent jadvalidan olindi.

Natija va tahlillar

2019-2022 yillarda Buxoro viloyati Dermatovenerologiya dispanseriga Leyshmanioz bilan murojaat qilganlarning jami soni 1137 nafarni tashkil etgan. Shu 1137 nafar bemorlarning kasallik klinik shakliga ko'ra retrospektiv tahlildan o'tkazildi. Shularning barchasi tadqiqot uchun o'rganildi. Jami 1137 nafar bemor o'rganilgan bo'lib, bemorlarning barchasi statistik tahlil qilindi. Murojaat qilgan bemorlarning kasallik klinik shakliga nisbatan o'rganish natijalari quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'ldi (1-jadval). Aniqlangan malumotlarga ko'ra Leyshmanioz kasalligiga chalinish holatlari Qorako'l, Olot, Buxoro shahar, G'ijduvon, Jondor tumanlarida ko'pchilikni tashkil qildi. Kasallanish holatining ko'pligiga tumanlarning o'ziga xos ekologik muhiti va iqlimi bilan aloqadorligi ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topdi. Buni quyida keltirilgan jadvallar orqali ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan birinchi jadvalda shular aks etadiki: 2019-2022 yillar kesimida olingan natijalar Buxoro shahrida leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 19 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan 17 nafarni, furunkulsimon shakli bilan 14 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan 22 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan 7 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 79 nafarni tashkil etdi.

Buxoro tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 14 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 16 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 15 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 24 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 5 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 74 nafarni tashkil etdi.

Leyshmanioz bilan kasallangan bemorlarni 2019-2022 yillarda klinik shakllariga ko'ra tumanlar kesimida taqsimlanishi

Tuman nomi	Leyshmanioz bilan 2019-2022 yillarda kasallangan bemorlar klinik shakllariga ko'ra tumanlar kesimida					Jami
	O'tkir yallig'langan	Nekrozlanuvchi	Furunkulsimon	Asoratlangan	Kech yaralanuvchi	
Buxoro shahri	19	17	14	22	7	79
Buxoro tumani	14	16	15	24	5	74
Vobkent tumani	12	14	17	19	4	66
Jondor tumani	17	21	27	25	6	96
Romitan tumani	21	18	24	26	9	98
Qorovulbozor tumani	11	14	18	20	5	68
Qorako'l tumani	28	35	31	37	11	142
Olot tumani	27	32	37	35	13	144
Peshku tumani	16	27	25	18	7	93
G'ijduvon tumani	22	25	28	16	9	100
Shofirkon tumani	17	24	27	15	6	89
Kogon tumani	15	26	25	17	5	88
Jami:	219	269	288	274	87	1137

Vobkent tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 12 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 14 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 17 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 19 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 4 nafarni, jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 66 nafarni tashkil etdi.

Jondor tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 17 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 21 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 27 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 24 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 6 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 96 nafarni tashkil etdi.

Romitan tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 21 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 18 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 24 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 26 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 9 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 98 nafarni tashkil etdi.

Qorovulbozor tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 11 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 14 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 18 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 20 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 5 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 68 nafarni tashkil etdi.

Qorako'l tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 28 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 35 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 31 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 37 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 11 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 142 nafarni tashkil etdi.

Olot tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 27 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 32 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 37 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 35 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 13 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 144 nafarni tashkil etdi.

Peshku tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 16 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 27 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 25 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 18 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 7 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 93 nafarni tashkil etdi.

G'ijduvon tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 22 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 25 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 28 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 16 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 9 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 100 nafarni tashkil etdi.

Shofirkon tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 17 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 24 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 27 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 15 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 6 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 89 nafarni tashkil etdi.

Kogon tumani leyshmanioz kasalligi o'tkir yallig'langan shakli bilan kasallangan bemorlar 15 nafarni, nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 26 nafarni, furunkulsimon shakli bilan kasallangan bemorlar 25 nafarni, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 17 nafarni, kech yaralanuvchi shakli bilan kasallangan bemorlar 5 nafarni jami shu kasallik tashxisi bilan bemorlar soni 88 nafarni tashkil etdi.

Leyshmanioz kasalligi bilan 2019-2022 yillarda ro'yxatga olingan jami bemorlar soni 1137 tani tashkil etdi. Tuman kesimida leyshmanioz kasalligi klinik shakllari bo'yicha tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra kasallik uchrash ko'rsatkichi eng yuqori bo'lgan Olot tuman ekanligi aniqlandi. Keyingi o'rinda Qorako'l tumani eng kam leyshmanioz diagnozi qo'yilgan tuman Vobkent tumani ekanligi aniqlandi.

Xulosa

Leyshmanioz kasalligi bilan 2019-2022 yillarda ro'yxatga olingan jami bemorlar soni 1137 tani tashkil etdi. Tuman kesimida leyshmanioz kasalligi klinik shakllari bo'yicha tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra kasallik uchrash ko'rsatkichi eng yuqori bo'lgan Olot tumani ekanligi aniqlandi. Keyingi o'rinda Qorako'l tumani eng kam leyshmanioz diagnozi qo'yilgan tuman Vobkent tumani ekanligi aniqlandi. Leyshmanioz kasalligi klinik shakllari uchrash darajasiga nisbati quyidagini tashkil qildi: o'tkir yallig'langan shakli 219, nekrozlanuvchi shakli 269, furunkulsimon shakli 288, lixenifikatsiya bilan kechuvchi nekrozlanuvchi shakli 274, kech yaralanuvchi shakli 87.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Зайцева С.В. Атопический дерматит у детей // Лечащий врач. — 2003. — № 2. — С. 40–44
2. Homey B., Steinhoff M., Ruzicka T., Leung D.Y. Cytokines and chemokines orchestrate atopic skin inflammation. //J Allergy Clin Immunol 2006 Jul; 118 (1): 178—89
3. Озодов Ж.Х., Султонов С.О., Юсупов Д.А. (2022). Возрастная и гендерная сегрегация больных лейшманиозом в Бухарской области. Журнал Евразийских медицинских исследований, 7,62-68. Извлечено из <https://geniusjournals.org/index.php/emrp/article/view/1027>
4. Озодов Ж.Х., Рахматов О.Б. (2020). Analysis of registered patients diagnosed with gonorrhea in bukhara region and a method for comparing the effectiveness of the drugs used depending on the clinical course of the disease. //Новый день в медицине, (4), 293-297.
5. Mazitov L.P. Bolalarda allergik dermatozlarning patogenezi va davolashning zamonaviy jihatlari. Rossiya tibbiyot jurnali 2001 yil. 9-jild. № 11 p. 457-459.
6. Fedenko E.S. - Leyshmanioz: terapiyaga bosqichma-bosqich yondashuv uchun asos. Consilium Medicum 2001 yil v.3 No 4, 176-183-betlar.
7. Rakhmatov, O. B. (2021). Improving the principles of treatment in patients with zoonotic leishmaniasis with the immunomodulator gepon and methylene blue using the alt-vostok device. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(9).

8. Latipov I.I., Axmedovich M.F., Hamza o'g'li O.J. (2021). Evaluation of the quality of life of vitiligo patients by the effectiveness of combination therapy using the dermatology life quality index (DLQI). //Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(10), 55-63.
9. Axmedovich M.F., Samadovna S.G., Obidovich S.S. (2021, May). Observation of immunological changes during clinical cycles of skin leishmaniasis. In Euro-Asia Conferences (Vol. 5, No. 1, pp. 207-211).
10. О.Б Рахматов, Ж. Х Озодов, Н.Д Хайитова. Patients with a diagnosis of gonorrhea are registered in bukhara region and depending on the clinical course of the disease, separation into age and gender., //Новый день в медицине 2020, №1, 347-350.
11. Ikhtiyor Ikromovich Latipov, Maxmudov Farxad Axmedovich, Ozodov Jasur Hamza o'g'li. Clinical and immunological aspects of pathogenesis and complex therapy of vitiligo 10.17605/OSF.IO/UCRD8 14-20
12. Ozodov J.H. (2022). Morphological analysis of human skin and the skin of tail in mice. //International bulletin of applied science and technology, 2(11), 166–175.
13. Озодов Ж.Х., Рахматов О.Б. Анализ зарегистрированных пациентов с диагнозом гонорея в бухарской области и метод сравнения эффективности применяемых препаратов в зависимости от клинического течения заболевания. //Новый день в медицине, 2020. (4), 293-297.
14. Тешаев Ш.Дж., Озодов Дж.Х. Ранние эффекты нанесения татуировки на морфологию кожи мыши и основные отличительные признаки с нормальной кожей. //Международный журнал медицинских наук и клинических исследований, 2022. 2(11), <https://doi.org/10.37547/ijmscr/Volume02Issue11-09>
15. Рахматов О.Б. (1998). Клинико-аллергологическая характеристика вирусного гепатита В на фоне сочетанного течения лямблиоза (Doctoral dissertation, –БухМИ, 1998.–16 с).
16. Рахматов О.Б., Хушвактова М.Ф. Ранняя диагностика и совершенствование принципов лечения у больных с кожным лейшманиозом. //Биология и интегративная медицина, (2018). (11).
17. Raxmatov O.B., Hayitova N.D. (2021). The use of “Sulfacet-R”–Gel in Combination with Zinc Ointment to Determine its Effectiveness Against Acne Disease. Central asian journal of medical and natural sciences, 2(6), 227-230.
18. Xushvaqтова M. F., Raxmatov O.B. Assessment of Skin and Mucosal Changes During Acute Illness and Remission of Covid-19 Patients. //Central asian journal of medical and natural sciences, 2021. 288-291.
19. Raxmatov O.B., Hayitova N.D. To identify genetic tendency of tendency of teenagers to acne and to evaluate the efficiency of zinc for the purpose of it's prophylactic. //Новый день в медицине, 2020. (4), 129-132.
20. Maxmudov F.A., Raxmatov O.B., Latipov I.I., Rustamov M.K., Sharapova G.S. (2021). Intravenous laser blood irradiation in the complex treatment of patients with cutaneous leishmaniasis. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(9).
21. Рахматов О. Б., Юсупов Д.А. (2021). Бухоро вилоятида атопик дерматит касаллиги билан касалланганларнинг ёшга ва жинсга нисбатан ажратилиши. Scientific progress, 2(6), 1718-1729.
22. Рахматов О.Б., Озодов Ж.Х., Хайитова Н.Д. Patients with a diagnosis of gonorrhea are registered in bukhara region and depending on the clinical course of the disease, separation into age and gender. //Новый день в медицине, 2020(1), 347-350.

Qabul qilingan sana 20.11.2022